

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B.Nurmuratovning 2024-yil uchun
ISH RYEJASI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati
1.	Iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash va milliy valyutadagi depozitlar hajmini oshirishga qaratilgan pul-kredit siyosatini davom ettirish.	<ol style="list-style-type: none">Inflyatsiyaga monetar omillarning ta'sirini minimallashtirish orqali 2024-yil yakuniga qadar bazaviy inflyatsiya darajasini 7 foizgacha pasaytirish.Milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha ijoby real foiz stavkalarini saqlab qolish hamda bank omonatlari turlarini kengaytirish hisobiga aholining tijorat banklardagi jami depozitari hajmini 1,3 barobariga, milliy valyutadagi muddatli depozitlarini 1,5 barobariga oshirish.	2024-yil davomida
2.	Iqtisodiy o'sish sur'atlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlarini ta'minlash.	<ol style="list-style-type: none">2024 yilda iqtisodiyotga 275 trln so'mlik kreditlar ajratilishini ta'minlash.Iqtisodiyotda kredit qo'yilmalari qoldig'i yillik o'sishining nominal YalM o'sishiga yaqin darajada bo'lishini ta'minlash orqali kreditlash amaliyotining inflyatsiyaga bo'lgan bosimini pasaytirish.	2024-yil davomida
3.	Mikromoliyaviy xizmatlarni rivojlantirish.	Mikromoliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va qamrovini oshirish maqsadida mikromoliya banklarini tashkil etishning huquqiy asosini yaratish. Bunda, tadbirkor bo'lmog'chi bo'lgan aholiga 100 mln so'mgacha garovsiz kreditlar, ularning 50 foizini bank kartasi orqali ajratish amaliyotini yo'lga qo'yish.	2024-yil davomida
4.	Bank tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash va iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan samarali qo'llab-quvvatlash.	<ol style="list-style-type: none">Aholiga 15 trln so'mlik ipoteka kreditlari va korxonalariga aylanna mablag'larini to'ldirish uchun 65 trln so'mlik kreditlar ajratish.	2024-yil davomida

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalgaga oshirish mexanizmi	Ijro muddati
		<p>2. Loyihalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 28 trln so'mlik xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish.</p>	
5.	<p>Xalqaro zaxiralarning barqarorligini va aktivlar diversifikatsiyasini ta'minlash.</p>	<p>1. Xalqaro zaxiralarning barqarorligini ta'minlash maqsadida qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish orqali moliyaviy instrumentlar ko'lamini kengaytirish.</p> <p>2. Nyu-York Federal zaxira banki bilan Markaziy bank o'rtasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash.</p> <p>3. Xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy markaziy banklar bilan zaxiralarning butigi, likvidligi va daromadliliqi tamoyillaridan kelib chiqib diversifikatsiya qilish, xatarni boshqarish hamda ilg'or xorijiy amaliyotni o'rganish yuzasidan munosabatlarni kengaytirish.</p>	<p>2024-yil davomida</p> <p>2024-yil I-chorak</p>
6.	<p>Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida banklarda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish choralarini ko'rish.</p>	<p>1. Muammoli kreditlarni undirish bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlangan reja-jadvallarining ijrosini monitoring qilish;</p> <p>2. Banklardagi muammoli kreditlar ulushini xalqaro standartlarga ko'ra minimal hisoblangan raqamlar doirasida shakllantirish va ushbu ko'rsatkichning jami kredit portfeliga nisbatini 3-4 foizdan oshmasligi bo'yicha choralarini ko'rish.</p> <p>3. Mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli kreditlarni doimiy tahlil qilib borish orqali ularning banklar barqarorligiga ta'sirini yumshatish bo'yicha choralarini muvofiqlashtirish.</p>	<p>2024-yil davomida</p>

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati
7.	To'lov tizimini rivojlantirish maqsadida to'lov infratuzilmasi va imkoniyatlarini kengaytirish.	<p>1. To'lovlar uzluksizligini ta'minlash maqsadida tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan kun davomida foizsiz likvidlik taqdim etish imkoniyatini beradigan yangi mexanizmni joriy etish.</p> <p>2. 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmini 2023 yilga nisbatan 1,2 barobarga ko'paytirish.</p> <p>3. "Uzcard" va "HUMO" milliy to'lov tizimlari terminallar tarmog'ini o'zaro integratsiya qilish.</p> <p>4. Axborot xarakteriga ega davlat xizmatlarining kamida 10 ta turidan bankning mobil ilovasi orqali foydalanish imkoniyatini yaratish.</p>	2024-yil davomida
8.	Markaziy bankda kadrlar va yoshlar bilan ishlash siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash.	<p>1. Markaziy bank tizimida kadrlar salohiyatini oshirish borasida siyosatni belgilash.</p> <p>2. Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, zaruriy mehnat sharoitlarini yaratish va ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish.</p> <p>3. Markaziy bankda "IT laboratoriya" tashkil etish, ushbu laboratoriyada informatsion texnologiyalar yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun haq to'lanadigan amaliyot (stajirovka)ni yo'lga qo'yish.</p>	2024-yil davomida
9.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotini Oliy Majlisga taqdim etish.	Markaziy bankning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Cenati yalpi majlisida ko'rib chiqish va tasdiqlash.	2024-yil aprel

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Jiro muddati
10.	Markaziy bank tizimida korruptsiyaning oldini olish hamda unga nisbatan murosasiz munosabatchi shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish.	<p>1. Markaziy bank tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash tizimi indikatorlari bo'yicha belgilangan vazifalar jirosini ta'minlash.</p> <p>2. Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi korxonalarining korruptsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyatini muvofiqlashtirish.</p>	2024-yil I-chorak

Markaziy bank raisi



M.B. Nurmuratov